

TARBIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Nizomova Zarnigor Faxriddin qizi

Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasi talabasi

Adizov Baxtiyor Rahmonovich

Ilmiy rahbar: professor p.f.d.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muallif tomonidan bugungi kunda tarbiya fanlarini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, mutaxassislarning kasbiy faoliyatlarida axborot resurslarining o'rni, ahamiyati borasida amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlar hamda ushbu jarayonda uchraydigan pedagogik muammolar borasida fikr yuritadi.

Kalit so'zlar. Metod, zamonaviy dars, axborot resurslari, mutaxassis, pedagogik faoliyat, zamonaviy yondashuvlar, ta'lif, webtexnologiya.

АННОТАЦИЯ

В данной статье автор размышляет об использовании современных информационных технологий в преподавании образования, о роли и значении информационных ресурсов в профессиональной деятельности специалистов, а также о педагогических проблемах, возникающих в этом процессе.

ABSTRACT

In this article, the author reflects on the use of modern information technologies in the teaching of education, the role and importance of information resources in the professional activities of specialists, and the pedagogical problems encountered in this process.

KIRISH

Bugungi kunda respublikamizning taa'lif sohasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar tufayli pedagogik faoliyat jaraynida axborot texnologiyalaridan foydalanishning me'yoriy-huquqiy ba'zasini tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalar, ilmiy izlanishlar va texnologiyalarni ta'lif- tarbiya jarayoniga integratsiya qilish orqali pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlash ustuvor vazifalardan biri qilib belgilangan. Ta'lif tizimida o'quvchi –yoshlarga tarbiya fanini o'qitishda

axborot ta’lim resurslari, iqtidorli o‘quvchilarning intelektual salohiyatini o‘stirish uchun ijodiy materiallar tizimini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish fanga bo‘lgan qiziqishlarini o‘stirish bilan bir qatorda, Davlat ta’lim standartida tarbiya fani doirasida keltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni hayotda qanday tarzda qo‘llay olish dolzarb masalalardan bo‘lib hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020-yil 6-iyun sanasida “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tarbiya fanini bosqichma – bosqich amaliyotga joriy etish choratadbirlari to‘g‘risida” gi 422- sonli qarorni ishlab chiqdi. Unga ko‘ra umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma’naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan holda yagona “Tarbiya” fani 1 - 9-sinflarda - 2020/2021 o‘quv yilidan, 10 - 11-sinflarda esa - 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichmabosqich amaliyotga joriy etish hamda 2020-yil iyul oyidan boshlab yangi o‘quv yili boshlangunga qadar “Tarbiya” fani bo‘yicha tayyorlangan o‘quv dasturlari va darsliklar asosida umumta’lim maktablaridagi “Boshlang‘ich ta’lim”, “Milliy g‘oya va huquq”, “Tarix” va “Dinshunoslik” mutaxassisligiga ega fan o‘qituvchilari uchun xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarida “Tarbiya” fanidan onlayn shaklda maqsadli malaka oshirish kurslarini tashkil etish haqidagi qarorini qabul qildi.¹

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo‘l) tarbiya maqsadiga erishishning yo‘li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga biron ta tarbiyachining kuchi etmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o‘zining imkoniyatiga ko‘ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o‘zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Tarbiya metodlarini bunday xususiy takomillashtirish tarbiya usullari deb ataladi. Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo‘ylgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o‘zining tarbiyalanuvchilari bilan yo‘l ochadigan o‘rganilmagan so‘qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng

¹ 422-son 06.07.2022.Lex.uz

ustunli yo'llar – metodlarga aylanishi mumkin. Tarbiya metod va usullarini bilish, ularni to'g'ri qo'llay olishni egallash – bu pedagogik mahorat darajasini belgilovchi muhim tavsiflardan biri. Tarbiya metod va usullarining aloqadorligi ana shunda.

Amaliyotda tarbiya vositalari tushunchasi ham ajratiladi. Usullar deganda ta'sir ko'rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig'indisi tushuniladi. Vosita – bu usul ham emas, metod ham emas. Massalan, mehnat – tarbiya vositasi, biroq uni ko'rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko'rsatish – bu usullar. So'z (keng ma'noda) – tarbiya vositasi, biroq replika taqkoslash – usullar. Bu bilan bog'liqlikda ba'zan tarbiya metodlari qo'yilgan maqsadni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo'ladi.

ASOSIY QISM

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksilib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa jamiyat uzlusiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizimiga ega bo'lishi lozim. Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayondir.

Ta'limga o'qituvchi va o'quvchilarining hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rghanish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishslash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'limga jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'limga va tarbiya masalalari hal etiladi.

Bugungi kunda ta'limiyligi, tarbiyaviy jarayonlarda interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limga o'quvchilar doim tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamонавиев texnologiyaardabn foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib

topish, mustaqil o‘rganish va tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalni ham o‘zlarini chiqarishga o‘rgatadi.O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi vabilan bir qatorda boshqaruvchanlik, yo‘naltiruvchanlik funksiysini bajaradi.Bugungi kunda ta’limiy jarayonda “Aqlit hujum”, “Insert”, “Rolli o‘yinlar”, “Yumoloqlangan qor”, Bahsmunozara”, ”Sinkveyn”, ”Tarmoqlar”, ”FSMU”, ”Kichik guruhlarda ishlash” singari zamononaviy texnologiyalardan foydalaniadi.

Tarbiyaviy
mashg‘ulotlarning turli
bosqichlarda jarayonning
qizg‘nligini ta’minalash

ta’lim tarbiya olishga
bo‘lgan motivatsiyani
kuchayishi

ta’lim va tarbiya sifatini
hamda informatsion
madaniyatini yuqori
darajaga ko’tarish

kompyuterlarni faqat o‘yin
vositasi emas , balki foydali
beminnat dastur ekanligi va
uning imkoniyatlarini
namoyish etish

O‘quvchilarga axborot
texnologiyalari yordamida
rolili mashg‘ilotlar orqali
ijobiy ta’sir ko’rsatish

1-rasm. Axborot texnologiyalarining ta’lim-tarbiya jarayonining afzalliklari

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarning zamonaviy darslarni tashkil etishda axborot texnologiyalardan foydalaniishi bugungi kunning dolzarb jihatlatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.Shuning uchun,”Talim to‘g‘risida”gi qonunda mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali, zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalana oladigan mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi aks ettirilgan.

Bugungi kunda ta’liiyi hamda tarbiyaviy ishlar jarayoniga axborot texnologiyalarini qo‘lash borasida ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda . Ta’lim jarayonida kompyuter texnologyailaridan foydalishning pedagogik va psixologik maqsadga muvofiqligi muammolarini M.P. Lapchik, I.V. Maruseva, A.V. Mogileva, I.V. Robert va boshqa olimlar o‘rganishmoqda.

Ta’lim jarayonida texnik vositalardan foydalishning peres-pektivlari to‘g‘risida bundan yigirma yil oldin rus pedagogi B.G. Ananev shunday degan edi: «Texnik va pedagogik fanlarni, injenerlik va pedagogik psixologiyalarni birlashtirish asosida yangi, texnikaga asoslangan sanoat pedagogikasi quriladi... Pedagogik texnika va texnologiyalar pedagogik va texnik fanlarni o‘zida mujassamlashtirgan yirik markazga aylanadi.» [2, 95–96 b.].

O‘qitishning muhim xususiyati – bilimlardan foydalanish, ularni umumlashtirish va tizimlashtirishda samarali faoliyat uchun sharoit yaratishdir. Ta’lim jarayonini bunday tashkil etish o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ularni diqqatli bo‘lishga majbur qiladi, ularni tahlil qilishga, taqqoslashga, asosiy narsani ajratib ko‘rsatishga o‘rgatadi, ularni sinfdagi passiv tinglovchilardan faol ishtirokchiga aylantiradi. Shunday qilib, har xil turdagи texnologiyalar o‘quvchilarning kognitiv va ijodiy qiziqishlarini rivojlantirishga yordam beradi. Biroq zamonaviy ta’lim va axborot texnologiyalarini joriy etish ularning an’anaviy o‘qitish metodikasini to‘liq o‘rnini bosishini anglatmaydi, balki uning tarkibiy qismi bo‘ladi. Zero, pedagogik texnologiya – bu o‘rganish nazariyasiga asoslangan va rejalahtirilgan natijalarni ta’minlovchi ta’lim faoliyatini tashkil etish usullari, uslubiy texnikasi, shakllari yig‘indisidir. O‘qituvchi uchun yillar davomida shakllangan darsning stereotiplarini engib o‘tish juda qiyin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog‘liq.

1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo‘lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo‘lishi zarur.

2. Tarbiya mazmuni. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin. SHuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog‘lash g‘oyat muhimdir.

3. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish. U yoki shunga o‘xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog‘liqlikda hal qilinadi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko‘rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o‘z aksini topadi. Aytaylik, mas’uliyat tuyg‘usini boshlang‘ich ta’lim, o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasbhunar ta’limi muassasalarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo‘llaniladi.

4. Jamoaning shakllanganlik darajasi. O‘zini o‘zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog‘liqlikda pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlari ham o‘zgarmasdan qolmaydi. Bizga ma’lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvafakkiyatli hamkorligining zaruriy sharti.

5. Tarbiyalanuvchilarning individual o‘ziga xosliklari. Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o‘zi tarbiyaviy o‘zaro ta’sir etishning asosi bo‘la olmaydi. Ularni individual va shaxsiy tuzatish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o‘ziga xosligini rivojlanishiga, o‘ziga xosligini saqlashga, o‘zining «Men»ini amalga oshirishiga imkon beradigan metodlarni qo‘llashga harakat qiladi.

6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar. Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma'lumki, mavhum shart-sharoitlar bo'lmaydi, ular hamisha aniq. Ularni birlashuvi aniq holatlarda ko'rindi. Tarbiya amalag oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar nomini oldi.

7. Tarbiya vositalari. Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog'langan va birgalikda qullaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo'llanilishi uchun zaruriy yordam beruvchi ko'rgazmali qo'llanmalar, tasviriy san'at asarlari va musiqa san'ati, ommaviy axborot vositalari.

8. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi. Tarbiyachi odatda faqat o'zi biladigan va qo'llashni egallagan metodlarni tanlab oladi. Ko'plab metodlar murakkab bo'lganligi bois, o'kituvchida ko'p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday mas'uliyatdan bo'yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natijada turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda samarası past bo'ladi.

9. Tarbiya vaqt. Qachonki, vaqt kam , maqsad esa katta bo'lsa, «kuchli harakatlantiruvchi» metodlar qo'llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «ayaydigan» metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani «kuchli harakatlantiruvchi» va «ayaydigan» metodlarga bo'linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o'rgatish bilan bog'liq.

10. Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvafaqqiyatga erishishiga ishonch bo'lishi kerak. Buning uchun qo'llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko'ra bilish kerak[6].

XULOSA

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Insonning kamolotga yetishuvi hech qachon osongina amalga oshgan emas. Bu juda qiyin va uzun yo'ldir. Jamiatning bir tekisdagi rivojlanish jarayonlarida ham bu vazifa oson bo'lgan emas. Bugungi globallashuv jarayonlari keng miqyos kasb etib borayotgan, bozor iqtisodiyotining o'ziga xos qonunlari va tamoyillari tobora jiddiyroq bo'y ko'rsatayotgan hozirgi zamonda esa bu masala yanada murakkablashadi. Bu tabiiy jarayondir. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlarga ko'proq ehtiyoj sezilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasining “ Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni- T.:2020-yil. 23-sentabr//O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
2. Mirziyoyev Sh.. “2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot straregiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
3. Ruvinskiy P.I. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Т. 1991 у.
4. Гревцова, Г. Я., Олимов, Ш. Ш., Абдуллаев, К. Ф., & Самиева, Ш. Х. ОБЩАЯ ПЕДАГОГИКА.
5. Ochilov M. “Muallim – qalb me“mori” Т.: “O“qituvchi” 2001.
6. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika. Toshkent: Fan, 2006, 284 bet.